

XO'JALIK SUBYETLARIDA SOLIQ HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

A'zamova Aziza Olimjon qizi

Toshkent viloyat Toshkent tumani

Toshkent davlat iqtisodiyot Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7146079>

Annotatsiya: Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruv xodimlariga zarur qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlar yetkazib berishning samarali tizimi hisoblangan boshqaruv hisobining mohiyati, uni tashkil qilish xususiyatlari nazariy va ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Boshqaruv hisobining rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib, shu asosda strategik, taktik va operativ boshqaruv hisobi turlarining shakllanishi asoslangan.

Kalit so'zlar: moliyaviy va ishlab chiqarish hisblari, ilmiy tadqiqot yo'nalishlari, soliq hisobi, strategik boshqaruv hisobi, SWOT-tahlil, funksional qiymat tahlili, standart-kosting, direkt-kosting.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarlari talablariga javob bera olmayapti. Sababi – nafaqat boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish, holbuki uning bir qator muhim nazariy va metodologik masalalari ham hozirgacha o'zining ijobiy yechimini topgani yo'q. Xususan, iqtisodchi olimlar o'rtasida boshqaruv hisobining mohiyatini aniqlash, uning funksiyalarini talqin qilish, obykti va predmeti, metod va tamoyillari mazmunini belgilab berish bo'yicha ham munozara va tortishuvlar xanuzgacha davom etmoqda.

Takidlash lozimki, boshqaruv hisobi moliya hisobi kabi ko'p asrlik rivojlanish tarixiga ega. Shu yo'nalish bo'yicha manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqaruv hisobining eng muhim qismi xarajatlar hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilish bo'lgan va hozirgi kunda ham shundayligicha qolmoqda [6].

ADABIYOTLAR SHARHI

Shu jumladan, Ya.V. Sokolovning «Buxgalterskiy uchet: ot istokov do nashix dney» nomli kitobida menejmentning axborot bazasini sifat jihatdan o'zgarishga olib kelgan an'anaviy kalkulyatsiya tizimlari, «standart-kost» va «direkt-kost» tizimlarining shakllanish davrlari ko'rsatilgan hamda ularning boshqaruv hisobini tashkil qi- lishdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan [5].

A.Kalmes (1912 y.) o'zining ilmiy asarlarida tannarxni aniq kalkulyatsiya qilishning nazariyasini ishlab chiqqan va uni boshqaruv hisobining asosi sifatida ko'rsatgan [4].

Ch.Garrison (1911 y.) standart-kost tizimini yaratgan, Ch.Klark (1933 y.) direkt-

kost tizimining tamoyillarini shakllantirgan. XX asrga kelib budjetlashtirish, javobgarlik va mas'uliyat markazlari bo'yicha xarajatlar hisobi, strategik boshqaruvhisoblari rivojlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Boshqaruv hisobi tizimini boshqaruv tizimiga asossiz tenglashtirish kabi yondashuv, fikrimizcha, noto'g'ridir. Boshqaruv hisobi tizimini boshqaruv tizimiga tenglashtirish umuman mumkin emas, chunki boshqaruv hisobining asosiy vazifasi qaror qabul qilish jarayonining o'zi emas, balki qarorqabul qilish uchun relevant ma'lumotlarni tayyorlab berishdan iboratdir (1-jadval).

Boshqaruv hisobini ishlab chiqarish hisobi doirasida ham chegaralab bo'lmaydi, chunki boshqaruv qarorlariga qaratilgan xarajatlar xo'jalik yurituvchi subyektning raqobatbardoshligini ta'minlovchi yagona omili hisoblanmaydi. Huddi shuningdek, boshqaruv hisobi – bu buxgalteriya hisobining quyi tizimidir, degan keng tarqalgan fikrni ham qo'llab-quvvatlab bo'lmaydi, chunki buxgalteriya hisobini yuritishga qonun tomonidan belgilangan bir qator talablar uning o'ziga xosligini belgilaydigan boshqaruv hisobi tizimi xususiyatlariga qarama-qarshidir [2].

Hozirgi sharoitda boshqaruv hisobi tizimi mohiyatini xo'jalik yurituvchi sub'yektlar bo'limlari o'rtasidagi kommunikasion aloqalarning mukammal tarzda ishlab chiqilgan shakllari va metodlari yig'indisi sifatida tushunish mumkin; korxonada tarkibiy bo'linmalari faoliyatini joriy rejalashtirish; ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning operativligini ta'minlash; moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar sarfi ustidan operativ nazorat o'rnatish; yuzaga kelgan har bir holat yuzasidan tahlil va istiqbolni belgilash.

1-jadval

Moliyaviy ma'lumot hisobi tizimining qiyosiy tahlili [1]

Hisob turining nomi	Hisob turining maqsadlari	Hisobdan foydalanuvchi guruh	Hisob faoliyatini olib boradigan tushunchalar
<i>Buxgalteriya hisobi</i>	Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotining shakllanishi	Tashqi	Xarajatlar, sarflar
<i>Boshqaruv hisobi</i>	Menejerlar uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadidagi axborotlarning shakllanishi	Ichki	Xarajatlar, muomala xarajatlari, sarflar
<i>Soliq hisobi</i>	Soliq summalarini to'g'ri hisoblash va	Tashqi	Xarajatlar (ya'ni sarflar)

	soliqni davlat budjetiga o'z vaqtida to'lash		
<i>Ishlab chiqarish hisobi</i>	Maxsulotlar zahirasi bahosini aniqlash uchun ishlab chiqarish sarflari haqidagi ma'lumotni yig'ish	Ichki	Sarflar

Yuqorida ta'kidlanganidek, boshqaruv hisobi kalkulyatsiya hisobi negizida vujud- ga kelgan, shunga muvofiq hozirgacha uning asosiy tarkibini ishlab chiqarish xarajat- lari hisobi tashkil qilib kelmoqda. Boshqaruv hisobi mohiyatiga ana shunday yondashuv bu nafaqat amaliyotchilar, balkim nazariyachi-iqtisodchi olimlar orasida ham anchaginadir. Ular boshqaruv hisobi mohiyatini belgilashda xuddi ana shu yondashuv mohiyatidan kelib chiqadi [6].

Shu o'rinda qayd qilish kerakki, boshqaruv hisobining mohiyatini belgilashda deyarlik barcha mualliflar uning asosida axborot tahlili turishini alohida qayd qiladilar. Boshqaruv hisobi tarkibida xo'jalik yurituvchi subyektning barcha bo'limlari kesimida asosiy faoliyat natijalari, ana shu natijadagi har birining ulushi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, tasniflanadi, tahlil qilinadi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Zamonaviy milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, boshqaruv hisobi mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

Boshqaruv hisobi – xo'jalik yurituvchi subyektning muammolarini hal etish va istiqboldagi rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tezkor (operativ) boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlari va daromadlari hisobi, me'yorlashtirish, rejalashtirish, nazorat va tahlil tizimini ifodalovchi relevant ma'lumotlarni bir tizimga soladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Boshqaruv hisobini samarali tashkil qilishdagi ana shu muhim vositalar tarkibida muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi va budjetlashtirishning o'рни beqiyosdir. Ular boshqaruvning hamma darajalariga daxldordir, ya'ni strategik darajadan to operativ darajagacha. Ular yordamida juda ko'plab boshqaruv masalalari yechiladi, xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy faoliyatini tizimli tarzda iqtisodiy baholash imkoniyati ta'minlanadi hamda teskari aloqa (boshqaruv jarayonining barcha bosqich- larini tahliliy ma'lumotlar bilan ta'minlash) o'rnatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ivashkevich V.B. Mas'uliyat markazlari va xarajatlar markazlari tomonidan boshqaruv hisobini tashkil etish. //Buxgalteriya hisobi. - M .: Moliya va statistika, 2010, № 3 - 56-59 betlar.
2. Horngren Ch., Foster J. Buxgalteriya hisobi: boshqaruv aspekti. - M.: Moliya va statistika, 2010. - 415 p., 78-bet.
3. Sokolov Ya.V., Sokolov V.Ya. Buxgalteriya hisobi tarixi. - M.: Moliya va statistika, 2016. - 288s., 33-bet.
4. Golova S. Boshqaruv hisobi korporativ boshqaruv sifatini oshirish omili sifatida. - Audit va buxgalteriya hisobi. - 2013. - 345b.
5. Drury K. Menejment va ishlab chiqarish hisobiga kirish: Ingliz tilidan tarjima qilingan. / Ed. N. D. Eriashvili. - M.: Audit, UNITI, 2018. - 783 b.
6. Karpova T.P. Boshqaruv hisobining asoslari: Proc. nafaqa. - M.: INFRA-M, 2017.- 392s.
7. Nikolaeva O.E., Alekseeva O.V. Strategik boshqaruv hisobi. - M.: URSS tahririyati, 2013. - 304 b.